



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi

**VOLUME 5
ISSUE 1**

2024



TIL, TA'LIM, TARJIMA

1-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-1, ВЫПУСК-5

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-5, ISSUE-1



TOSHKENT-2024

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

№1 (2024) DOI

Bosh muharrir:

Mirzayev Ibodulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismoilov Salohiddin
f.f.n., professor (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

Bakirov Poyon f.f.d., professor (O'zbekiston)	Qulmamatov Do'smamat f.f.d., professor (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom f.f.d., professor (O'zbekiston)	Rasulov Ravshamxo'ja f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla f.f.d., professor (O'zbekiston)	Safarov Shahriyor f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy f.f.d., professor (O'zbekiston)	Shahobiddinova Shohida f.f.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira PhD, dotsent (O'zbekiston)	Sobirov Anvar PhD (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy f.f.d., professor (O'zbekiston)	Tagayeva Sayyora PhD, dotsent (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem f.f.d., dotsent (Afg'oniston)	Ubaydullayeva Maftuna PhD, dotsent (O'zbekiston)
Mamatov Abdi f.f.d., professor (O'zbekiston)	Uluqov Nosirjon f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)	Umurqulov Bekpo'lat f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar f.f.d., professor (Qirg'iziston)	Xasanov Axmad mas'ul kotib, PhD (O'zbekiston)
Nadim Mohammad Humoyun PhD (Afg'oniston)	Xayrullayev Xurshid f.f.d., professor (O'zbekiston)
Pardayev Azamat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Yo'ldoshev Qozoqboy p.f.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno kotib, PhD, dotsent (O'zbekiston)	

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Abdiyev Murodqosim f.f.d., professor (O'zbekiston)	Suvonova Nigorabonu f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat f.f.d., professor (O'zbekiston)	To'xtasinov Ilhom p.f.d. (O'zbekiston)
Berdaliyev Abduvali f.f.d., professor (Tojikiston)	Yoqubov Jmoliddin f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
Karimov Suyun f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Mamatov Abdug'ofur f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Mo'minov Siddiq f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Raximov G'anisher f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Sayfullayeva Ra'no f.f.d., professor (O'zbekiston)	

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

№1 (2024) DOI

Главный редактор:

Мирзаев Ибадулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Исмаилов Салахиддин
к.ф.н, доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бакиров Поён д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Кулмаматов Дусмамат д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиева Гуландом д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Расулов Равшанхужа д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Далабаев Хамидулла д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Сафаров Шахриёр д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Элгазаров Жулибай д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Шахабиддинова Шахида д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира PhD, доцент (Узбекистан)	Собиров Анвар PhD (Узбекистан)
Киселев Дмитрий д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Тагаева Сайёра PhD, доцент (Узбекистан)
Лабиб Саид Моҳаммад Алем д.ф.н., доцент (Афғонистон)	Убайдуллаева Мафтуна PhD, доцент (Узбекистан)
Маматов Абди д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Улуков Насиржан д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Раҳматулла юрист, доцент (Узбекистан)	Умуркулов Бекпулат д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзахидова Муяссар д.ф.н., профессор (Киргизистан)	Хасанов Ахмал отв. секретарь PhD (Узбекистан)
Надим Моҳаммад Хумоюн PhD (Афғонистон)	Хайруллаев Хуршид д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Пардаев Азамат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Йулдашев Казакбай д.п.н., профессор (Узбекистан)
Кадирова Барно секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)	

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Абдиев Мурадқасим д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Сувонова Нигорабону к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакоева Мухаббат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Тухтасинов Илхам д.п.н., профессор (Узбекистан)
Бердалиев Абдували д.ф.н., профессор (Таджикистан)	Якубов Жамалиддин д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Хужамурал д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
Каримов Суюн д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Маматов Абдугафур д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Муминов Сиддик д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Рахимов Ганишер д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Сайфуллаева Раъно д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

Вёрстка: Шахрам Файзиёв

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

№1 (2024) DOI

Chief Editor:

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien.,
prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Ismailov Salokhiddin
Cand. of phil. sciences, assistant
professor (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD:

Bakirov Poyon Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Kulmamatov Dusmamat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakieva Gulandom Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Rasulov Ravshankhuj Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Safarov Shakhriyor Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Eltazarov Juliboy Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Shakhobiddinova Shokhida Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Isakova Nodira PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)
Kiselyov Dmitriy Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Tagayeva Sayyora PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Habib Said Mohammad Alem doc. of phil. scien. (Afg'oniston)	Ubaydullayeva Maftuna PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Mamatov Abdi Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Ulukov Nosirjon Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzaev Rahmatulla lawyer, assoc. prof. (Uzbekistan)	Umurkulov Bekpulat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzokhidova Muyassar Doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)	Hasanov Ahmad senior secretary, PhD (Uzbekistan)
Nadim Mohammad Humoyun PhD (Afg'oniston)	Hayrullaev Hurshid Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Pardaev Azamat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Yuldashev Kazakbay Doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)
Kadirova Barno Secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	

SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

Abdiev Murodkosim Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Suvonova Nigorabonu Cand. of phil. sciences, assoc. prof. (Uzbekistan)
Bakaeva Mukhabbat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Tukhtasinov Ilhom doc. of ped. scien. (Uzbekistan)
Berdaliev Abduvali Doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)	Yakubov Jamoliddin Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Jabborov Khojamurod Doc. of phil. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)	
Karimov Suyun Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Mamatov Abdugafur Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Muminov Siddik Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Rakhimov Ganisher Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Sayfullaeva Rano Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

T I L S H U N O S L I K

1.R.Rasulov	
Kauzativ munosabatning fe'llarda ifodalanishi.....	7
2. X.Xayrullayev, R.Rustamov	
Matn tahlilidanaive, kmp va bm algoritmlarining ishlash prinsipi xususida.....	21
3. F.Usmanov	
Lingvomadaniy kod konseptlarni tavsiflash usuli sifatida.....	30
4. Д.Юлдашева	
Америка тилшунослиги тарихи ва тараққиёти.....	39
5. M.Ataniyazova	
Matn va tahlil - ta'limning asosi.....	48
6. Д.Мирзаева	
Проявление графической асимметрии на парадигматическом аспекте.....	57
7. F.Yakubov	
Kognitiv - diskursiv tahlil usullari.....	65
8.D.Axmedova	
Ingliz va o'zbek tillarida oksyumoronning qo'llanilishi bo'yicha ayrim mulohazalar.....	74
9. Sh.Jumaeva	
The importance of social media in language learning.....	83
10. R.Nabiyeva	
Hozirgi jonli so'zlashuv tilidagi oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalarining qo'llanilish ko'lamini.....	89
11.Z.Xamrayeva	
Murakkab sintaktik qurilma va period tushunchalari qiyosiy tahlili (ingliz tili materiallari asosida).....	98
12. D.Khudoyarova	
Language learning through the cultural aspects.....	107

T A' L I M S H U N O S L I K

13 M.Xalova	
Mumtoz adabiyotda ayol ijodkorligi fenomeni.....	113
14. X.Suyunova, H.Suyunov	
The main stages of integrative education.....	122
15. M.Xamidova	
O'zbek va jahon bolalar adabiyotida glyuttonik fantaziya va didaktika.....	130

T A R J I M A S H U N O S L I K

16. S.Rasulova	
Vashington Irving nasriy asarlari.....	140
17. G.Qurbonova	
Uilson Roulsning "Where the red fern grows" asari xususida.....	150

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Xamidova Mohinaxon

mustaqil tadqiqotchi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Tarjima nazariyasi va amaliyoti"
kafedrasida katta o'qituvchisi,
Toshkent, O'zbekiston
m.xamidova@kiut.uz

O'ZBEK VA JAHON BOLALAR ADABIYOTIDA GLYUTTONIK FANTAZIYA VA DIDAKTIKA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va jahon bolalar adabiyoti glyuttonik fantaziya va didaktika masalasi, bola tarbiyasidagi o'rni masalalari ko'rib chiqilgan. Har bir bolaning glyuttonik tasavvuriga umrida bir marta bo'lsa ham tugamaydigan shirinliklar va o'zi xush ko'radigan yeguliklar kelgan. Jahon adiblari bolalar fantaziyasi ustida ijod qilib, glyuttonik fantaziyaga boy bolani kitobga mihlaydigan asarlar yarata oldilar. Yosh kitobxon uchun jozibador ko'ringan mazkur asarlar zamirida esa, albatta didaktika yotadi.

Kalit so'zlar: o'zbek va jahon bolalar adabiyoti, glyuttonik fantaziya, didaktika, bola tarbiyasi, glyuttonik tasavvur.

Khamidova Mohinaxon

PhD student,
Kimyo International University in Tashkent
The department of "Translation theory and practice"
Senior teacher,
Tashkent, Uzbekiston
m.xamidova@kiut.uz

GLUTTONIC FANTASY AND DIDACTIC IN UZBEK AND WORLD CHILDREN'S LITERATURE

ABSTRACT

In this article, the problem of gluttonous fantasy and didactics of Uzbek and world children's literature, and the role of it in child education is considered. Every child's gluttonous imagination has at least once in his life never-ending sweets and foods he likes. Writers of the world have created works based on children's fantasy and can make a child full of gluttonous fantasy become addicted to books. At the core of these works, which seem attractive to young readers, is didactics.

Keywords: Uzbek and world children's literature, gluttonous fantasy, didactics, child education, gluttonous imagination.

Хамидова Мохинахон

PhD студент

Ташкентский международный университет Кимё

Кафедра "Теория и практика перевода"

старший преподаватель,

Ташкент, Узбекистан

m.khamidova@kiut.uz

ЧРЕДОВАЯ ФАНТАЗИЯ И ДИДАКТИКА В УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема чревоугодия и дидактики узбекской и мировой детской литературы, ее роль в воспитании детей. Прожорливое воображение каждого ребенка хотя бы раз в жизни встречало нескончаемые сладости и блюда, которые ему нравились. Писатели мира создали произведения, основанные на детской фантазии, и способны вызвать у ребенка, полного прожорливой фантазии, зависимость от книг. В основе этих произведений, которые кажутся привлекательными юным читателям, лежит дидактика.

Ключевые слова: узбекская и мировая детская литература, ненасытная фантазия, дидактика, воспитание детей, ненасытное воображение.

Badiiy adabiyot shaxsni aqlan va ruhan kamolga yetkazadi, jamiyatning ma'nan tozarishi va yuksalishiga xizmat qiladi. E'tibor berilsa, deyarli barcha milliy adabiyotlar taraqqiyotining ilk bosqichlarida didaktik funktsiya oldingi planda turgani ko'riladi. Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatiga juda qadim davrlardan ayricha e'tibor berib kelinishi bejiz emas. Xususan, qadimgi yunon faylasufi Aflotunning "Davlat" asarida Ag`dabiyotning tarbiyaviy tomonidan qanday foydalanish kerak, kimga, nimani va qanday o'qitish kerak degan masala keng qo'yilgan. Sharq xalqlarida ham yosh avlodni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan maksimal foydalanilgan. Shu bois ham Sharq mumtoz adabiyotida "Guliston", "Bo'ston", "Qutadg'u bilik", "Hibatul haqoyiq", "Qobusnoma" singari didaktik asarlar yaratilgan. To'g'ri, adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlarida sof didaktik xarakterdagi asarlar kamayib boradi, hatto oshkor didaktikaga berilgan asarlar badiiy mukammallikdan yiroq tushadi, deb hisoblanadi. Shunga qaramay, adabiyotning mazkur funktsiyasi hamon juda kuchli va sezilarlidir. Zero, chinakam san'at asarida ijodkor ezgulik, go'zallik, adolat singari umuminsoniy qadriyatlar tomonida turib fikr yuritadiki, ayni shu narsa badiiy adabiyotdagi tarbiyaviy funktsiyaning har vaqt mavjudligini ta'min etadi[2, 224]. Bolalar adabiyoti butun dunyoda bola tarbiyasi, shaxs sifatidagi kamolotining ajralmas qismi hisoblanadi. Asosan ezgulik va yovuzlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, yolg'onchilik hamda to'g'riso'zlik g'oyalari targ'ib qilinadigan bolalar adabiyotida qiziqarli syujetlar, fantaziya, bola tasavvurining cheksiz imkoniyatlari uslubiy vositalar orqali to'ldiriladi.

Tadqiqotimiz doirasida Sharq va G'arb bolalar adabiyotidagi glyuttonik diskursga yetakchi syujetlarni qiyoslashni taom diskursiga oid sayyor glyuttonimlar tahlilidan boshlasak. Adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onovning ta'kidlashicha - Adabiyotshunoslikda "syujet" va "fabula" istilohlarini ishlatishda turlichalik bor: ayrim adabiyotshunoslar bu ikki istilohni sinonim sifatida ishlatsalar, boshqalari farqlaydi. Xususan, rus formal maktabi vakillari "fabula" deganda asarda tasvirlangan voqealarning hayotda yuz berish tartibini, "syujet"

deganda esa ularning asarda joylashtirilish tartibini tushunadilar. Voqealarning hayotda yuz berish tartibi bilan ularning asarda joylashtirilish tartibini farqlash badiiy asar qurilishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[2, 224]. Butun insoniyatning orzusi bo'lgan ochlikka barham berish, tugamaydigan taom va yegulik manbaiga erishish ertaklarda asosiy yetakchi syujet hisoblanadi. Kambag'alning orzusi yegulik. To'yib ovqat yeyishni istaydiganlar butun dunyoda ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin bu istaklar yovuzlik va o'g'rilikka sabab bo'lmasligi kerak. Shu maqsadda ertaklarda tunganmas yeguliklar manbai doim yaxshilik qiladigan, to'g'riso'z va halol insonga mukofot sifatida berilishi, bu mukofotni qo'lga kiritgan odam esa, nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi kerakligi haqidagi g'oya Aka uka Grimlarning "Bir humcha shavla" ertagidir. Mazkur ertak syujeti quyidagicha boshlanadi "Qadim-qadim zamonlarda ona va uning qizchasi bo'lgan ekan. Ular judayam halol ammo juda qashshoq yashashar ekan. Shu qadar qashshoqi, yeyishga xech vaqolari yo'q ekan. Kunlardan bir kuni qizcha o'rmonga qo'ziqorin va maymunjon tergani boribdi. O'rmonda qari kampirni uchratibdi. - Meni maymunjon bilan mehmon qil, senda qarzim qolib ketmaydi qizim - debdi kampir. Qizcha kampirni mehmon qilibdi, chunki u juda sahiy va mehribon qizcha edi. Kampir esa qizchaga loydan yasalgan humcha sovg'a qilibdi. Odiy emas humcha emas sehrli. Humchaga qayna - desa, humchada mazali shavla qaynay boshlaydi. Agar "to'xta humcha" - deyilsa shavla pishishni to'xtaydi. Qizcha kampirga minnatdorchilik bildirib, humchani uyga olib kelib, bor gapni onasiga aytib beribdi. Shundan beri ular ochlik nimaligini unutishibdi. Kunlardan bir kun qizcha yana o'rmonga meva tergani ketgan ekan, uyda qolgan ona humchaga qaynashni buyuribdi. Ona to'ygunicha shavlani yebdi biroq, humchani qanday to'xtatish kerakligini unutibdi. Shavla qaynab humchadan to'kilib, uyni to'ldiribdi, ko'chada irmoqdek oqib, butun ko'chani to'ldiribdi. Hamma shavlada suzib yurar, hech kim humchani qanday to'htatishni bilmas edi. O'rmondan qaytib kelgan qizcha - "to'xta humcha" -debdi. Kim uyiga ketmoqchi bo'lsa, o'ziga yo'l ochib, shavlani yeyishiga to'g'ri kelibdi. Ertakning asiyat matnida taom nomi aslida shavla emas porridge - ya'ni bo'tqa deb berilgan. O'zbek tiliga esa, mazkur ertakdagi taom bo'tqa emas, shavla - deb tarjima qilingan. Aka-uka Grimmlarning "Bir humcha shavla" ertagi o'zbek tiliga turli yillarda bir necha bor tarjima qilingan. Ular ko'proq rus tili vositasida o'zbek tiliga o'girilgan. Bu tarjimalar quyidagilardir: 1. O'zbek bolalar shoiri Adham Rahmat tomonidan 1938 yilda amalga oshirilgan vositali tarjima. U o'sha yillarda amalda bo'lgan lotin yozuvida, o'zbek tilida chop etilgan. 2. Oradan 40 yil o'tib, bu ertak mutarjim mutaxassis Surayyo To'raxonova tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan va kirill yozuvida 1978 yilda chop qilingan. 3. Ushbu ertak 2008 yilda internet sayti orqali ham e'lon qilingan, ammo uning tarji moni aniq ko'rsatilmagan[1, 171]. Ertakdagi "bo'tqa" glyuttonimining "shavla" - deb tarjima qilinishiga sabab, bo'tqa bu o'zbek gastronomik olam milliy manzarasidagi quyi sinf vakillari iste'mol qiladigan taom emas. Bo'tqa ya'ni kasha - bu rus milliy oshxonasiga xos taom bo'lib, bog'chadagi bolalar nonushtasining asosiy taomi hisoblanganligi sabab, kattalar emas, "bolalar taomi" degan asosiyativ tushunchani hosil qiladi. Vaholangki, Grim ertagidagi bo'tqa o'sha davrda Yevropadagi quyi sinf vakillarining kundalik asosiy taomi hisoblangan. Bu taom masalliqlarini topishni ham bazo'r eplaydigan xalq uchun bo'tqa qaynaydigan humcha, ochlikka barham beruvchi fantastik idish, orzu hisoblangan. Bo'tqa qaynaydigan idish ham asiyatda pot(qozon), rus tilida esa - gorshok deb berilgan. O'zbek tiliga mazkur taom nominantining "shavla" deb tarjima qilinishi leksik-semantik jihatdan ma'qul yechim hisoblanadi. Sababi, o'zbek Olam Milliy Lisoniy Manzarasida - shavla bu quyi sinf vakillari iste'mol qiladigan hamyonbob ovqat. Ya'ni, oshdan keyingi o'rinda turuvchi kamharj taomdir. Ayni o'rinda ertakning syujeti haqida munozara yuritmoqchimiz. Ertakning syujeti tugamaydigan taomlar haqidagi qadimgi rivoyatlarga borib taqaladi. Hind tilida ham shunga o'xshash taom tayyorlayligan sehrli idish haqidagi ertak bor. Mazkur ertakdagi idish bir dona guruchdan tugamaydigan

darajada shavla tayyorlagan. Qadimgi Germaniyada Maslenisa kuni kishilarning asosiy taomi non va bo'tqa bo'lgan. Bu udum yil bo'yi hech narsada zoriqmaslik, doim to'q yurish uchun amalga oshirilgan. Lyuts Rerixning aytilishicha, ertakdagi bug'doy yormasi o'rta asrlardagi kambag'al sinf vakillarining rasoni tasviri hisoblanadi[8]. Ertak syujeti o'rta asrlardagi Yevropani qiynagan muammo - ochlik haqida. Kishilar och bo'lishgan. Adabiyotshunos Deniyel Karolin bu haqida shunday deydi: Mazkur ertakda hosildorchilik past bo'lgan, kambag'allar makkajo'gori so'tasi, loviya, no'xat, va turli dukkakli donlar bilan kun ko'rishga majbur bo'lgan davr tasvirlangan. 1437 yildan 1439 yillarda butun bir davlatda hosil yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sabab nobud bo'ladi. Ertakda qizchaning onasi beva shuning uchun ham ota obrazi yo'q. Yegulik topish uchun qizchaning bir o'zi harakat qiladi va o'rmonga boradi. Tinimsiz ochlikdan qiynalgan kishini taomdan hosil bo'lgan fantaziya oziqlantirishga qodir. Mazkur ertak srunkali ochlik bilan kurash va kuch quvvat beruvchi kuch haqida ertakdir[3, 61].

Och odamning tafakkurida olam - iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan mavjudlik. Bu global kognitiv murojaat insonning maishiy olamni iste'mol qilish, sarflashga bo'lgan urinishi asosini tashkil qiladi[4, 281]. Ochlik azobli tuyg'u bo'lib, umuminsoniyatga tushunarli. Och odam faqat yeyish haqida o'ylaydi. Och qorinni to'ydirish uchun esa, miyaga har xil yomon o'ylar kelishi ham mumkin. Mazkur olmon ertagidagi syujet: 1)Kambag'al lekin halol ertak qahramoni; 2)Yegulik izlab yo'lga chiqadi; 3)O'zi och lekin kimgadir yeguligini bo'lishadi, och qorinda ham yaxshilik qiladi; 4)Bu yaxshiligi mukofoti sifatida ochlik balosidan qutulishi; 5) Biroq, e'tiborsizlik qilishi va uning salbiy oqibati - turli xalq ertaklarida uchraydi. Ushbu ertak syujetini o'zbek xalq ertagi "Ur to'qmoq"da ko'rish mumkin. Xamma gap laylakning faqir, juda ham kambag'al ovchi cholning tuzog'iga nogahon tushib qolishidan boshlanadi. Na boy, na yurtga hokim bo'lish o'yida ham yuq cholg'a laylakning xuddi odamga o'xshab gapirishi, va'da berishi "laylaklarning boshlig'iman, nima so'rasang beraman", deb aytishi qashshok cholning hayolini buzadi[5, 32]. Mazkur ertakda qorni oshga to'ymay yurgan ovchi chol o'z yeguligi, o'ljasi bo'lgan laylakni yeb qo'ymaydi. Och hayvon xech qachon o'z o'ljasini qo'ldan chiqarmaydi. Odamning hayvondan farqi esa, unda mehr-shavqat, halollik tuyg'ulari mavjud. Mazkur ertakda taom ya'ni ovchi cholning to'riga tushgan laylak insondagi nafsning ramziy ifodasi. Ya'ni, hayotda nafsni keragida tiya olsang, cheksiz taom va boylikka erishish mumkin degan postulat mavjud. Bu ertak esa bolaga shu qoidani bola tili bilan tushuntirmoqda. O'zbek xalqining eng ta'sirli ertaklaridan biri bo'lgan "Ur to'qmoq" haqida adabiyotshunos olim Mamasoli Jumaboyev bu ertakka quyidagicha ta'rif beradi: Bu ertakda o'zbekona soddalik, odamlarga ishonish, dushmanga qarshi nafrat va boshqa fazilatlar mujassamlangan. Ertakda umidvorlik, orzu-istak ezgu niyat kuchli. Bir parcha nonga zor xalq turli o'y, hayol bilan xuddi tushida ko'rgani kabi boy-badavlat bo'lish, unga bu yo'lda kimki to'sqinlik qilsa, uni yer bilan yakson qilish ishq'i bilan yashaydi. Bu orzu-tilakni amalga oshirishda hayvonot olami-yu, parrandalardan keng foydalanish oliy maqsadlardan biri xisoblanadi[5, 32]. Yosh adabiyotshunos Bayramali Qo'ldoshevning fikricha "Ertak" so'zining lug'aviy ma'nosi ham aynan ? aytib bermoq, hikoya qilmoq degani. Shundan kelib chiqib aytganda o'zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari ham o'z-o'zidan dunyoga kelgan emas. Birgina "Ur, to'qmoq!" ertagini misol keltiradigan bo'lsak, o'tmishda har xil bosqinchiliklardan aziyat chekkan ona xalqimiz o'z ertagida to'qmoqni tasvirlab, yovlarning zaminimizdan ta'zirini yeb, tezroq badarg'a bo'lishlariga umid qilgan. "Ochil, dasturxon" ni tasvirlab, qachondir dasturxonlari to'kin-sochin bo'lishini, qorni mazali ovqatlarga to'yib taom tanovvul qilishini umid qilgan. Bu narsalarga ega bo'lgan cholning laylakning singan oyog'ini davolab tuzatgani zamirida esa, har qanday orzu-umidlarga yetishning yo'li o'zgalarga yaxshilik qilish va mehnatda ekanini tushuntirmoqchi bo'lishgan[7]. Mazkur ertakda taom diskursi asosiga qurilgan. Ertak boshdan-oyoq to'kin yashash, to'yib

ovqatlanish, tugamas nozu-ne'matga to'la tushliklar orzusi motivlarini o'z ichiga olgan troplardan tashkil topgan. Ertak mashhur bo'lgan davr ya'ni 1990 yillarga qadar quyi qatlam kishilarining asosiy rasionida kartoshka, makaron, shakar, non va dukkakli mahsulotlar bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi dan mustaqillikkacha bo'lgan davrda yozilgan o'zbek adabiyoti namunalarida mazali taomlar asosan boy, jinoyat olamiga aloqador shaxslar, yoki poraxo'r sovet amaldorlarining negativ qiyofasini bo'rttirish uchun qo'llangan. Badiiy asarda salbiy qahramonlar iste'mol qilgan nozu-ne'matlar va tansiq taomlar asar qahramonlarining ijtimoiy statusi markerovkasi bo'lib xizmat qilgan. Olima G.Odilova o'zbek adabiyoti namunalarida taom diskursini tahlilga tortar ekan, o'zbek adabiyotida taom va tanovvul mavzusi: Ruhiiy iztirob, to'kinlik orzusi; Qahramonning negativ portreti tasviri; Muallifning qahramon fe'liga munosabatini ifodalashda; Madaniyat tasvirida qo'llangan degan xulosaga keladi[4, 281]. Tahlilga tortayotganimiz "Ur to'qmoq" ertagida esa, to'kin dasturxon - ezgulik uchun beriladigan mukofotdir - degan didaktik podtekst mavjud. Xamma gap laylakning faqir, juda ham kambag'al ovchi cholning tuzog'iga nogahon tushib qolishidan boshlanadi. Na boy, na yurtga hokim bo'lish o'yida xam yuq cholga laylakning xuddi odamga o'xshab gapirishi, va'da berishi "laylaklarning boshlig'iman, nima so'rasang beraman", deb aytishi qashshok cholning hayolini buzadi. Laylakni kuyib yuborgan chol ertasiga sovg'a-salom olish uchun uning oldiga safarga o'tlanadi. Undan "Qaynar humcha"ni so'raydi, "Ochil dasturxon"ni tilab oladi. Bularning birortasi xam mo'jiza ko'rsatmaydi - na oltin, na taom bermaydi. Negaki, yo'lda chol uxlab qolganida qishloq bolalari bu sehrli buyumlarni boshqasi bilan almashtirib qo'yishgan bo'ladi. Axiri "Ur tuqmoq"ni olganidan keyin ertaklardagidek u boy-badavlat bo'lib ketadi. Ruzg'orini o'nglaydi, chiroyli imoratlar quradi, xonni ziyofatga chaqiradi. "Men xon bo'lsam-u usha kambag'al, qashshok, cholning uyiga mexmondorchilikka boramanmi?", deb uni mensimaganligi uchun xonni jangga chaqiradi. Ur tuqmoq yordami bilan xonni yenggan cholning yurtboshi bo'lib ketishi - dardli xalqning armoni ruyobga chiqqanligi o'quvchini mamnun qiladi. Ertak xayotda xuddi usha ovchi kabi dadil harakat qilishga, o'rni kelganda jasoratli bo'lishga mudom chorlab turadi. "Ur tuqmoq"da, halol, poklik, o'zgalar xaqiga xiyonat qilmaslik, birovlarini aldamaslikdek olijanob fazilatlar yaxshi tasvirlangan. "Kur'oni karimda" xam, Hadislarda ham bir-birovlaringiz bilan uchrashganingizda, xonadonlaringizga kirganingizda salom-alik qiling, deyilgan gap bor. Buning oliy namunasini ertakda xam kuzatdik. Ovchi har safar laylak xuzuriga kirganida salom berishi va laylakning cholni ogohlantirib alik olishi o'quvchini sergaklantiradi, uni salom-aliksiz yurmaslikka o'rgatadi:

"Assalomu alaykum, - debdi chol.

Laylakvoy:

- Xaq saloming bo'lmasa, ta'ziringni berardim, - deb alik olishi yuqoridagi fikrimizga asos bo'la oladi.

Shuningdek, birovlarining xaqiga xiyonat qilish, o'g'irlik qilish yaxshi oqibatlariga olib kelmasligi, cholning buyumlarini yashirib qo'ygan qishlok, bolalarining to'qmoq zarbiga bardosh bera olmay cholga yalinishlari har qanday kitobxonni o'ylantirib qo'yadi:

- Chol ota, to'qmoqni tuxtating, biz sizning humchangizni, dasturxoningizni olib, o'rniga boshqa humcha, boshqa dasturxon qo'ygan edik. Tavba qildik, ota! To'qmoqni to'xtating, deyishdi. Chol: "Tur, tuqmoq!" deb baqirgan edi, to'qmoq, urishdan to'xtadi. Bolalar yugurib borib, uylaridan "Qayna, humcha" bilan "Ochil dasturxon"ni chiqarib berdilar[5, 32]. Ertakdan olinadigan o'git - og'izdagi oshni oldirmaslik uchun kuch kerak. Kuch bilakda yoki aqlda bo'lishi mumkin. Mazkur ertakdagi ochil dasturxon va undagi nozu-ne'matlar to'kin hayotning ramziy ifodasidir. Och qolmaslik uchun yaxshilik qil! Qorning to'q bo'lishi uchun o'g'irlik qilma - jazolanasan! Og'zing oshga yetdimi? - o'z omadingni, qaynar humcha va ochil dasturxoningni asra, ehtiyotsiz bo'lma! Yetarlicha aql

va kuchga ega bo'! - degan didaktik ma'no inson hayoti va yegulikning chambarchas bog'liqligi, yeyiladigan olamni iste'mol qilishdek abadiy hohishni qondirishning yechimi taom diskursidagi ramziy ifodalar orqali ochib berilgan.

Ertakdagi syujet Grim ertagidagi "Qaynar humcha" ertagidagi syujetga o'xshaydi. Ya'ni ikkala qahramonni ham ochlik qiynaydi. Ikkalasi ham yegulik topish ilinjida qayergadir yo'l oladi. Grimm ertagidagi qizcha qo'ziqorin va maymunjon topish uchun o'rmonga, o'zbek ertagidagi chol esa chorbog'idagi qopqonni tekshirishga boradi. Ikkala qahramonda ham qornini o'sha daqiqada to'qlash, yoki och qolib bo'lsa ham kimgadir yaxshilik qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkala qahramon ham sahiylik va insoniylikni ko'rsatadi va qilgan yaxshiligining oliy mukofoti mangu to'qlikka xizmat qiladigan sehrli buyumga ega bo'ladilar. Ikkala qahramon ham ularga berilgan to'qlik, cheksiz ovqat va yeguliklar, to'kinlik taqdim etuvchi buyumga ehtiyotsiz munosabatda bo'ladilar. Natijada hayoliy fantaziyasida mangu to'qlik borligini tasavvur qila olgan yosh o'quvchi bir muddatga kishiga bir marta beriladigan imkoniyat bilan ehtiyotsiz muomilada bo'lish, yoki bironing qo'liga tushishi qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilishiga imkon yaratadi. Sovet davrida, bugungi kundagidek magazin rastalari turli shirinlik va nozu-nematlarga to'la bo'lmagan paytda, o'qish kitobidagi "Ur to'qmoq" ertagiga ishlangan "ochil dasturxon" ilyustratsiyasi o'sha davr bolalarining ishtahasini qitiqlagan. Sababi, rasmda tasvirlangan to'kin dasturxonni bolalar faqat yangi yil bayrami yoki tug'ilgan kun ziyofatida ko'rishgan. Kundalik oddiygina rasionda ertakdagi tasvirlangan nozu-ne'matlar to'la dasturxonda o'tirilmadi. Natijada, mazkur ertak bolalar tasavvurida to'kin dasturxon, laylakni asrash, qushlarga yaxshilik qilish mukofoti - degan asosisatsiyani hosil bo'lgan. Jahon bolalar adabiyotida taom ko'p ertaklarda mo'jizaviy yakun sifatida beriladigan tuhfa sifatida keltirilgan. O'sha davrda kambag'al qatlam bolalari uchun yozilgan yevropacha ertaklarda och qorinni to'ydirish yetakchi mavzu hisoblangan. Keyinchalik, nafaqat qorinni to'ydirish balki, birinchi etapda qorinni to'ydirish, keyin esa boyib ketish motiva paydo bo'ldi. Shavla qaynaydigan humcha haqidagi Grimmlar ertagida qizcha boyib ketmaydi. Shunchaki uni qiynaydigan ochlik balosidan qutiladi. Shu mualliflarning "Genzel va Gertel" syujeti yuqoridagi ertakka o'xshasada boshqacha yakun topadi. Kambag'al o'tinchi oilasi yeyarga hech vaqolari yo'q. Butun mamlakat ochlik balosidan qiynalganida o'tinchi oilasini boqa olmay qoladi. O'gay onaning maslahati bilan bolalar ota ularni o'rmonga tashlab keladi. Och bolalar sehrli uychaga kirib qoladilar uyning devorlari non va tortdan, derazasi esa shakardan tayyorlangan edi. O'sha paytlar shakarqamish nihoyatda qimmat mahsulot edi. Hindiston va Arabistondan olib kelinadigan import mahsulot bo'lgan. Shakardan faqatgina boylar iste'mol qiladigan marsepan va boshqa shirinliklarni tayyorlashda foydalanilgan. Bu taomlarni tatib ko'rishga qashshoqlarning cho'ntagagi ko'tarmagan. Shirinliklardan qilingan uy kambag'al uchun ekzotika, yetib bo'lmaydigan bir orzu. Agar kishining kundalik rasioni juda g'arib bo'lsa, o'zi yeta olmaydigan yeguliklar haqidagi ertak juda qiziqarli tuyuladi. Ochlikni qutulshdan tashqari, kambag'allikka barham berish, qashshoq dehqonning kundalik azobli hayotining tugab, boy va farovvon turmushda yashash orzusi ham mavjud. Ertakdagi bolakaylar uycha ichiga kiradilar qorinlarini to'ydiradilar. Etaklarini uy ichidagi qimmatbaho toshlarga to'ldirishadi. Uyning egasi sehrgar ularni otasining yoniga olib boradi. Bu vaqtda o'gay ona o'lgan, hamma azoblariga chek qo'yilgan, endi ular boyib ketishgan, umrlarini hashamatda o'tkazishlari mumkin edi. Ertakda nafaqat ochlikdan, undan keyingi etap qullikdan qutilish ham asosiy motiv qilib olingan[3, 63].

Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o'xshashlik haqida fikr borganida, ko'proq sehrli ertaklar nazarda tutiladi. Inson qadim zamonlarda ham xayol surgan, o'zicha turli-tuman g'aroyib voqealarni o'ylab topgan. Aslida, miqlaming vujudga kelishida ham ajdodlarimizdagi aynan ana shu xususiyat yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik fantastik voqealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrli dasturxonlarga, oltin qaynaydigan

xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko'rish mumkin bo'lgan jomlarga, oynalarga o'tgan. Bunday voqealarni o'ylab topish ajdodlarimiz orzulari, havaslari bilan asoslangan. Yo'l azobidan aziyat chekkan inson uchar gilam, ot, manzilga ko'z ochib ochguncha yetkazgan bo'rini o'ylab topgan. Oziq-ovqat topishga qiynalgan odam esa ochil dasturxonning ijodkoriga aylangan. Natijada, sehrlı ertaklardagi voqea-hodisalar haqiqiy ma'noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasini tashkil qilgan[6, 234]. Jahon va o'zbek halq ertaklarida bir biriga o'xshash yetakchi syujetlar maishiy ertaklarda ham mavjud. Masalan: Rus xalq ertagida sholg'om, xitoy ertagida lavlagi, koreys xalq ertagida turup. Hammasida ularning hajmi juda katta va butun oilani to'ydirish uchun yetarli qilib tasvirlangan. Maqsadlar ham oila jamuljamligini ta'minlash. "Zumrad va Qimmat" va "Yoriltosh", "Morozko", "Zolushka" ertaklaridagi syujet o'gay onadan jabr ko'rgan yetim qiz barcha qiyinchiliklarni yengib chin bahtga erishadi. ko'chib yuruvchi syujetdir. O'zbek bolalar adabiyotida sevib o'qilgan sargo'zasht asarlar "Shum bola" va "Tom Soyerning sargo'zashtlari" asari syujet va xronotroplarida o'xshashlik mavjud. Adabiyotshunoslar ham bu ikki asardagi o'zaro o'xshashliklarni qiyoslashadi. Jahon bolalar adabiyotidagi sayyor syujetlarni qiyosiy o'rganish natijasida o'tgan tarixiy davrda har ikki qit'ada ham insoniyat uchun quyidagi umumiy muammolar yechimini topish adabiyot vazifasiga yuklanganligini ko'rish mumkin:

- ochlik balosi bilan kurashishga motvatsiya uyg'otish;
- qashshoqlarni yorqin kelajak borligiga ishontirish;
- ochlik sabab turli jinoyatlar, o'g'rilik va qotilliklarning ko'payib ketmaslining oldini olish;

- kambag'al qatlam bolalarini lazzatli fantaziya bilan ovuntirib, yashirin tarbiya berish va ularning o'z kelajaklari haqidagi yorqin ssenariylarni hosil qilish;

- zodagon qatlam bolalarining to'g'ri ovqatlanishini nazoratga olish, tanovvul madaniyatini o'rgatish.

Bolalar adabiyotidagi taom diskursini qiyoslaganimizda, yuqoridagigi tahlillarda keltirilgan syujetlardan tashqari shuningdek - taom va fantaziya, mazali sargo'zashtlar, insonga yegulikka xos sifatlarning ko'chishi, ochko'zlik va yeb qo'yish kabi mavzularning mavjudligi aniqlandi. Keyingi boblarda biz ushbu o'xshashliklarni mavzu kesimida diskursiv tahlilga tortamiz.

Bolalar uchun yozilgan asarlarda shirinliklarni haddan tashqari iste'moli mubolag'a bilan tasvirlangan fantastik syujetlar ham ko'p uchraydi. Har bir bolaning glyuttonik tasavvuriga umrida bir marta bo'lsa ham tugamaydigan shirinliklar va o'zi xush ko'radigan yeguliklar kelgan. Jahon adiblari bolalar fantaziyasi ustida ijod qilib, glyuttonik fantaziyaga boy bolani kitobga mihlaydigan asarlar yarata oldilar. Yosh kitobxon uchun jozibador ko'ringan mazkur asarlar zamirida esa, albatta didaktika yotadi. Shunday asarlardan biri Ronald Dalning Charli va shokoladlar fabrikasi asaridir. Mazkur kitob birinchi birlab 1964 yilda AQSH da nashr etilgan. Ronald Dal uslubining o'ziga xosligi shundaki, u hech qachon insonga xos ijobiy fazilatlarini ochiq-oydin ko'rsatib bermaydi. Doim salbiy harakter salbiy holatlarni oshkor qilishga urinadi. Bu orqali kichik kitobxonni hayot beshavqatligiga o'rgatish asosiy maqsad qilinadi. Aksariyat holatlarda uning asari qahramonlari bo'lgan bolalar - ochko'zliu, ahmoqlik va takabburlik kabi salbiy sifatlarga ega bo'lishadi. Biroq, yomonlar doimo o'z jazosini oladi va kattalar orasidan biror ijobiy personaj bolaga yordamga keladi. Muallifning "Charli va shokoladlar fabrikasi" asarida ham huddi shunday bo'ladi. Eng qizig'i muallif birinchi bo'lib asosiy qahramon Charli Baketga emas, balki asardagi salbiy qahramonlar bo'lgan bolalarga ta'rif beradi[9].

Ovqat va tanovul mavzusi ingliz bolalar adabiyotida alohida o'rin tutadi. Bolalar shirinlikka o'ch bo'ladilar. Dunyoda hech bir bola yo'qki, yoshlik chog'ida shokoladli tog'lar, limonadli daryolar bo'lishini orzu qilmagan bo'lsa. Jahon bolalar adabiyotida Roeld Dalning shokolad va shirinliklar asosiy o'rinni egallovchi Charlie and the Chocolate Factory ("Charli va

shokolad fabrikasi") asari glyuttonik diskurs boy fantaziya bilan qo'llangan original asar hisoblanadi. Charlidek yilida bir marta - tug'ilgan kunidagina shokolad yeya oladigan kambag'al bolakayda Villi Vonkaning oltin chiptalaridan birini qo'lgakiritish imkoniyati 100 % edi aslida, biroq oxirigacha umidini so'ndirmagan Charlining maktabdan qaytishda ko'chadan topib olgan ellik pensga sotib olgan shokoladlarining biridan chiqqan oltin chiptamurg'ak bolaning qalbida "lazzatli kelajak" kabo'lgan ishtiyoq olovini yoqib, hayot kutilmagan mo'jizalarga boy ekanligiga ishontira oladi. Binobarin, sehrGAR qandolatchi Villi Vonkaning shokoladlar fabrikasiga sayohat va butun umrga yetadigan shokolad va konfetlarga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi bor-yo'g'i oltita chiptaning birini olish uchun boy oila farzandlari "Vonka hayrati" seriyasidagi shokoladdan quti-quti sotib olishar edi. Lekin omad Charliga kutib boqadi. Asardagi bosh g'oya - inson hech qachon umidni so'ndirmasligi kerakligi, hayotda doimo oxirigacha o'z orzusining ushalishi uchun kurashishi zarurligi muallif tomonidan yosh kitobxon ongiga lazzatli tasvirlar orqali yaxshiroq yetkazib berilgan. Chexiyalik tadqiqotchi Suzanna Polishenskaning ta'kidlashicha, mazkur asarda shirinliklar og'izning suvini qochiradigan qilib tasvirlangan. Jon bobo tomonidan Charliga shokolad fabrikasi haqida aytib berilganida, shirinlik dunyosiga oid birorta so'z nazardan chetda qolmagan[4, 281].

Dunyodagi eng yirik shokolad fabrikasining egasi janob Villi Vonka o'z fabrikasining eshiklarini beshta omadli bolalarga va ularning ota-onalari uchun ochishga qaror qiladi. Vonka o'zining mashhur shokolad barlari o'ramlari ostiga beshta oltin chipta yashirish rejasini ishlab chiqadi. Beshta oltin chiptani qidirish jarayoni juda qiziq kechadi. Avgust Gloop(Nodon), baquvvat bola, uning yagona sevimli mashg'uloti ovqatlanish bo'lib, birinchi chiptani u topadi, buning uchun u juda ham ko'p shokolad yeydi. Veruka Solt, chidab bo'lmas tarbiyasiz, ota-onasi taltaytirib yuborgan qizcha. Otasi butun fabrikasi hodimlarini shu chiptani topishga ishlatadi va ular chiptani olishadi. Violetta Byurgard uchinchi chiptani topadi, saqich chaynash bo'yichajahon rekordini o'rnatmoqchi. To'rtinchi chipta Mayk Tevigaberiladi, uning nomidan ko'rinib turibdiki, u faqat televizor ko'rishdan boshqa ish qilmaydi. Kitobning qahramoni Charli Baket bo'lib, u beshinchi va ohirgi chiptani qiyinchiliklar bilan topadi. Kambag'al, ammo odobli bola Charli butun oila-oltita qariya va bolakay Charli katta shaharcha markazidagi ko'rimsizgina yog'ochli uyda birgalikda yashashadi. Charlining eski kulbasida hammasi bo'lib faqat ikkita xona va bitta karavot bor, xolos. Karavot to'rt qariyalar - bobo va buvilarga berilgandi. Chunki ular juda keksa va madorsiz edilar. Charli va uning ota-onasi poldagi matraslarda uxlashadi. Charli kuniga uch martagina quruq karam qaynatib tayyorlangan suyuq ovqat icha olardi, bu o'sayotga bola uchun juda kam va to'yimsiz edi. Natijada u kasal bo'lib qoladi. Yilda bir marta, tug'ilgan kunida Charli bir bo'lak Vonka shokoladini yeya olardi. Janob Baket, Charlining otasi ishini yo'qotgach, Baketlar oilasining ahvoli yanada og'irlashadi. Chari va uning oilasi erta tongdan oshqozonidagi bo'shliq haqida o'ylardi.

Bir kuni juda ham ochlikdan sillasi qurigan Charli ko'chadan qorga ko'milib yotgan yirtiq dollarni topib oladi va pulning bir qismini onasiga topshirishdan oldin shokolad sotib olishga qaror qiladi. Birinchi bo'lak shokoladni yegandan so'ng, Charli yana bittasini sotib olishga qaror qiladi va o'ram ichidabeshinchi oltin chiptani topib oladi. Naotasi, na onasi Charli bilan zavodga bora olishmasdi. Janob Baket oilani boqish uchun ish qidirishi kerak edi, onasdi Baket xonim esa nogiron bobo va buvilarga g'amxo'rlik qilishga majbur edi. Shunda, Charlining eng keksa va eng sevimli bobosi, Jo bobo o'nlab yillar davomida birinchi marta to'shakdan turib, u bilan borishini aytadi. Jo bobo va Charli o'zlarining sargo'zashtlari tomon yo'l oladilar. Fabrikada Charli va Jo bobo zavodning aql bovar qilmaydigan manzaralaridan ayniqsa shirinliklarning o'zgacha hidlaridan hayratda qolishadi. Ular janob Vonka va uning zavodiga minnatdorchilik bildirishsa-da, qolgan to'rtta bolalar o'zlarining tarbiyasizliklarini ko'rsatisha boshlaydilar. Shuning oqibatida, tarbiyasiz bolalar

zavoddan chiqarib yuboriladi. Avgust Gloop issiq shokolad daryosiga tushib, uni ichishga urinib, daryoga tushib ketadi va quvurga tiqilib qoladi.

Taltaygan qiz, Veruka Solt esa qaysarligi ortidan axlatxonaga tushib ketadi:

"- Yo'q! - dedi Villi Vonka. - Unday qilmasliging kerak!

Ammo u kech qolgandi. Bu paytda Veruka allaqachon eshikni ochib bo'lgan va yaqinroqda turgan yoqimtoygina olmaxonni ushlashga harakat qilardi. U mo'jalga olgan olmaxonni ushladi, ammo bir-ikki soniya o'tmayoq, yuzta olmaxon unga yopirilib kelib, 25 tasi chap qo'lga, 25 tasi o'ng qo'lga, 25 tasi chap oyog'iga, 25 tasi o'ng oyog'iga yopishib oldi. Har bir olmaxon o'zi ushlagan joydan, ayniqsa, boshidan bilak bo'limlari bilan qizni taqillatib ko'rishardi. Kutilmaganda uni sudrab ketishdi. Violetta Byuurgard esa juda ham ko'p saqichni olib og'ziga solib chaynay boshladi. Natijada u ham zavoddan chiqarib tashlanadi. U haqida shunday deyishadi:

Yotsa ham, tursa ham tinmasdi hech.

Ovqatlanganda-chi, tashlamas xasis,

Jag'lar tin olmas, dam olar saqich.

Qulog'iga saqichni yopishtirib,

So'ng ovqatni solar edi to'ldirib.

Keyin jag'lar boshlar yana ishini,

Shunday o'tkazardi yoz-u qishini.

Telivizor ko'rishga mukkasidan ketgan Mayk Tivi esa :

"- Shuncha tugmalar orasida televizor ko'radigan xonaga olib boruvchi tugma yo'qmi?
- so'radi Mayk.

- Albata, bor! Bu tugma mana bu yerda.

Villi Vonka tugmani ko'rsatdi. Tugma ustiga "TELEVIZOR SHOKOLAD" deb yozilgandi.

- Aynan men uchun! - deb hayqirdi Mayk. U ruxsat kutmay, tugmani bosib yubordi. Zum o'tmay g'ayrioddiy vizillagan tovushlar eshitildi va eshik jaranglangan ovoz bilan yopildi." Shunday qilib Mayk ham shokolad telivizor ichiga tushib qoldi.

Har bir bolaning sinovidan so'ng, faqat Charli qolganida, Villi Vonka unga o'girilib, uni g'alaba bilan tabriklaydi. Unga eng katta sovrin shokolad fabrikasini tuhfa qiladi.

Mazkur asaarni bola glyutonnik fantaziyasining eng oliy cho'qqisi deb aytish mumkin. Muallif asarda juda ko'p sehrli shirinliklarni o'zi yaratadi. Asardagi g'aroyib kuchga ega shirinliklar shu kungacha AQSH qandolatchilik mahsulotlari orqasida yo'q edi. Bolalarni shirinlik orqali kitobga butun diqqat -e'tiborini qaratib, salbiy odatlardan voz kechgan bolanigina kelajakda mo'jiza kutishiga ishontirish muallifning asosiy maqsadi bo'lgan desak mubolag'a yo'q. Muallif kashf etgan fantastik shirinliklar haqida tilshunos G.Odilova shunday deydi:

Fantaziyaga boy badiiy tasvirda yosh kitobxonning ishtahasini qitiqlaydigan shirinliklar - muallif badiiy to'qimasi. Keyinchalik esa qandolatchilar bolalarning mazkur kitobga bo'lgan mehridan unumli foydalanib, asarda keltirilgan shirinliklarni ishlab chiqara boshladilar. Villi Vonkaning shirinliklari ingliz bozorlarining xaridorgir mahsulotiga aylandi. Yevropa o'smirlar adabiyotida ovqatni o'ta lazzatli tasvirlash an'anasi mavjud. Shirinlikka o'ch bolalarni kitobga mixlab qo'yuvchi bunday asarlar yosh ingliz kitobxonlari orasida shuhrat qozonib, ekranlashtirish darajasiga ham borgan. Mazkur asar bola fantaziyasini glyuttonik fonda ifodalay olgan[4, 135].

Iqtiboslar / Сноски / References:

- 1.D.Karimova. Aka-uka grimmlarning "Bir humcha shavla" ertagining tarjima variantlari qiyosi/Ilm sarchashmalari. 4-son..2021.-B.167. (n.d.).
- 2.D.Qur'onov. Adbiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004 y. -B.34. 224-b. (n.d.).
- 3.Daniel, Carolyn. Voracious Children: Who Eats Whom in Children's Literature (Children's Literature and Culture) includes bibliographical references. 2006, -P.63. (n.d.).
- 4.G.Odilova. Xususiy diskurslar Lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (glyuttonik diskurs misolida): Dis.Filol.Fanlari. doktori. Toshkent, 2019. - 122 b. 281 b. (n.d.).
- 5.M.Jumaboyev. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti: Oliy ukuv yurtlarining boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ishlar metodikasi fakultetlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: O'zbekiston, 2002. - 32 b.
- 6.O.Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma.Toshkent: Mumtoz so'z. 2010 -B.114. 234 b
- 7.<https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/bayram-ali-ertaklar-aslida-ham-ertakmi-oltin-beshik-ozbek-xalq-ertaklari.html>
- 8.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BB%D0%B0%D0%B4%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%BA%D0%B0%D1%88%D0%B0#%D0%A1%D1%8E%D0%B6%D0%B5%D1%82
- 9.obrazy-detey-v-proizvedenii-roalda-dalya-charli-i-shokoladnaya-fabrika-charlie-and-the-chocolate-factory.pdf